

## **BADIIY ASARLARDAGI AVTOMATIK TAHRIR VA TAHLILNING ZARURIYATI**

***Teshayeva Dildora***

“Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo'jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari  
Instituti”, Milliy tadqiqot universiteti Ingliz tili kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada dunyo va o'zbek tilshunosligida morfoanalizatorlar ishlab chiqish borasidagi olib borilayotgan tadqiqot ishlariga to'xtalib o'tilgan. Mavjud morfologik tahlil algoritmlarining kelgusida qilinajak ishlarda katta asos vazifasini o'tashi misollar yordamida tahlil etilgan. Shuningdek, tizimdagи ayrim kamchiliklar sabablari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** morfologik analizator, korpus, trop, algoritm, lemma, token, morfotaktik imkoniyat.

### **KIRISH**

Jahon tilshunosligida avtomatik tahlil va tahrir yo'nalishida imlo tekshiruvchi, morfologik va sintaktik tahlil qiluvchi tizimlarning lingvistik ta'minotlari ishlab chiqilgan. Ular tabiiy tilni qayta ishlashda til materialini tahlil va tahrir qiluvchi tezkor va har tomonlama tejamkor tizimlar yaratilishiga asos bo'lishi bilan birga mashina tarjimasi, elektron lug'atlar, parserlar (matndagi muayyan sintaktik birlik va strukturalarni avtomatik analiz algoritmi) ishlash sifatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, bugungi globallashuv jarayonida jahon kompyuter tilshunosligidan ortda qolmagan holda katta hajmli axborot matnlari ustida tezkor va samarali ishslash zarur. Shu ma'noda, avtomatik tahrir dasturlari ishlab chiqilmoqdaki, ular rus, ingliz, italyan, nemis, ozarbayjon, arab, turk, qirg'iz kabi tillardagi matnlarni tahrir qilishga qaratilgan.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Morfologik analizator so'zlar va so'z shakllarini lug'atdagi shakli bilan

taqqoslash, ularning asosi va so‘zning grammatik shakllarini aniqlash hamda ularga tavsif berish bilan shug‘illanadigan dasturiy ta’milot hisoblanadi. Bugunga qadar jahon tilshunosligida bir qancha olimlar tomonidan morfoanalizatorlar yaratish masalasi o‘rganilgan va salmoqli amaliy ishlar qilingan. Jumladan, 2004-yilda professorlar Konstans O’Sullivan va Charlotta Ebellar tomonidan yaratilgan “Ingliz va fransuz darslarida lug‘atni o‘rgatishda morfologik analizdan foydalanish” dasturi [Sullivan, 2004], “Ko‘kborak” lug‘atini shakllantirish [Sarkar, 2015], Malay va Tamil tillarining mashina tarjimasini yaratish morfologik tahlilning rivojiga turtki bo‘lganligi [Rajeev, 2011], arab tilshunoslari Y. Jaafar va K. Bouzoubaalar yaratgan arab morfologik analizatori fikrimizning isboti bo‘la oladi. Shuningdek, hozirgi kunda ham morfologik analizatorlar yaratish ustida jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Misol tariqasida turkiy tillar doirasida vujudga kelayotgan algoritmlarni aytishimiz joiz. Chunonchi, Adnan Öztürel, Tolga Kayadelen va Isın Demirsahin turk tili morfologiyasining keng qamrovli modelini va uni amalga oshiruvchi ochiq manbali morfoanalizatorini taqdim etishgan [4]. Ushbu morfologik tahlil dasturidan morfologiya va sintaksisni to‘liq qamrab olganligi tufayli turk tili modelini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Nafaqat turk tili, balki turkiy tillar agglyutinativ xarakterga ega bo‘lganligi sababli bu tillarda morfoanalizator yaratilishida morfotaktik holat asosiy sanaladi, chunki asos (o‘zak)dan keyin qaysi turdagи qo‘sishimchalar ketma-ketlikda qo‘silishi muayyan grammatik qoidaga asoslanadi. Xususan, o‘zbek tilining morfotaktik imkoniyati quyidagicha bo‘ladi: *Prefiks (old qo‘sishimcha) asos+ yasovchi qo‘sishimcha + lug‘aviy shakl yasovchi qo‘sishimcha + sintaktik shakl yasovchi qo‘sishimcha*. Ta’kidlash joizki, sof turkiy tillarda old qo‘sishimcha (prefiks) mavjud emas, biroq bu o‘rinda fors-tojik tillaridan o‘zlashgan *be-*, *no-*, *bo-*, *ba-*, *bar-*, *kam-*, *ser-*... kabi qo‘sishimchalar nazarda tutilgan. Tilshunoslik ham aniq fan bo‘lib, istisnolarni qabul qilmasligi kerak. Bizningcha, o‘zbek tilidagi *muzlatgich*, *o‘chirgich* kabi so‘zlarni ajratishda *muzlat +gich*, , *o‘chir+gich* shaklida bo‘lishi yuqoridagi fikrimizni asoslaydi.

Bu qoidalarga asoslangan holda o'zbek tilida ham o'zbek tili korpusi tarkibida [5], <http://uznatcorpara.uz> da morfologik analizatorlar ishlab chiqilgan. Dasturiy ta'minot berilgan matndagi har bir tokenni tahlil qiladi va turkum, turli grammatik ma'nolar kabi ma'lumotlarini shakllantiradi. Qidiruvga berilgan so'zning turkumini aniqlash uchun esa morfologik, semantik, sintaktik qoidalarga asoslanadi. Bu kabi lingvistik analizatorlar tabiiy tilga ishlov berish, axborotni qayta ishlash sifatini yaxshilash, Google translate tarjimonida avtomatik ishlov berish ko'nikmasini oshirish, o'zbek tilida turli korpuslar yaratish, korpus birliklariga avtomatik ishlov berish, korpusda qidiruv tizimini yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq hozirda mavjud morfonalizatorlar har tomonlama mukammal deya olmaymiz. Morfotahlil ishlash samaradorligi yuqori bo'lishi uchun tabiiy tillarning ayrim jihatlari, ya'ni omonimlik, paronimlik, polisemiya, frazeologizmlar, troplar to'sqinlik qiladi. Bu to'siqlarning yechim yo'llari izlanmoqda. Masalan, omonimlikni bartaraf etish texnologiyalari ishlab chiqilyapti. Buning uchun shakldosh so'zlarning har birini tasniflash lozim, ya'ni ularni lemma – gap bo'lagi va morfologik xususiyatlar majmuyi bilan taqqoslash mumkin. Kollokatsiya (semantik qurshov) usulidan ham o'zbek tilidagi omonim so'zlarni ajratishda foydalanish mumkin [Abdurahmanova, 2021]. Bu usul *oshiq* omonimik qatori misolida tahlil qilingan. Bunda tahlilga tortilgan *oshiq* so'zining yuzaga chiqqan barcha ma'nolari to'g'ri talqin etilganligi semantik qurshovning morfoanalizatorda unumidorlikni oshirishga xizmat qilishini ifodalaydi. Aytish joizki, semantik qurshov polisemiya, troplar masalasida ham ishonchli yechim bo'la oladi. Shuningdek, morfoanalizator to'g'ri ishlashiga putur yetkizadigan yana bir omil bu tahlil jarayonida so'zlarning morfonologik nuqtayi nazardan to'g'ri bo'linmasligi hisoblanadi. Bunga, asosan, so'zga qo'shimchalar qo'shilganda yuzaga chiqadigan fonetik o'zgarishlar sabab bo'ladi.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa o'rnida aytalarni olamizki, jahon tilshunosligi tajribasida ko'plab morfoanalizatorlar ishlab chiqilgan, ammo bir tilning qonun-qoidalari boshqa bir tilga to'g'ri kelmasligi sababli o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib

barcha qoidalar va istisnoli(dasturdagi) holatlarga asoslangan lingvistik tahlil metodlari yaratilishi gal dagi vazifalardan biridir. Morfologik analizatorga til leksikasining chastotali so'zlari, tildagi mavjud so'zlarni qayta ishslashga oid qoidalar to'plami kiritilishi kerak. Bundan tashqari, morfoanalizator so'z tahlili haqidagi tahminlarni yaratishga imkon beradigan moslashuvchan sozlama sifatida shakllantirilishi kerak va bunday algoritm omonimlar muammosiga o'xshash turli yanglishmovchiliklarni oldini oladi. Shu bilan bir qatorda, aniq tahlilni amalga oshirish uchun asos (o'zak)ga qo'shimchalar qo'shilishi natijasida hosil bo'ladigan fonetik (morfonologik) o'zgarishlarlar bo'yicha aniq qoliplar yaratilishi lozim.

## **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Constance O'Sullivan, Charlotte Ebel. Using morphological analysis to teach vocabulary in English and French classes. Teachers as Scholars Institute Princeton University. July, 2004. Marguerite Browning, Professor.
2. Partha Sarkar, Dr. Bipul Syam Purkayastha. Morphological analyzer in the development of bilingual dictionary (Kokborok - English) - An analysis for appropriate method and approach. // International journal of engineering and technology (IJIET). Vol.4, Issue 10, April 2015 - 98-103pp.
3. Rajeev R. R., Jisha P. Jayan, Dr. Rajendran S. Morphological analyser and morphological generator for Malayalam – Tamil machine translation. // International journal of computer applications. Vol.13 – No.8, January 2011.
4. <http://aclanthology.org/W19-3110.pdf>
5. <https://uzbekcorpus.uz>
6. Abdurahmanova M. T., Rahmannova A. A. O'zbek tili omonimlari uchun milliy teglar lug'ati. – T.: Lesson press, 2021. – 9-11 b.